

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
qarori

**Shisha idishlarning xavfsizligi to‘g‘risidagi
texnik reglamentni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2024 yil 28 fevraldagi PQ-91-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, shisha idishlarning xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

shisha idishlariga qo‘yiladigan xavfsizlik talablari, shisha idishlarni identifikatsiya qilish va muvofiqligini baholash tartibi, shuningdek, muvofiqlik belgisini qo‘llash hamda tamg‘alashga qo‘yiladigan talablarni nazarda tutuvchi shisha idishlar xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglament (keyingi o‘rinlarda — Texnik reglament) 1-ilovaga muvofiq;

Shisha idishlarning xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglamentni joriy etish sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Texnik reglament rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab olti oy o‘tgach amalga kiritilsin.

3. Vazirlar Mahkamasining «Shisha idishlarning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida» 2017 yil 16 fevraldagi 86-son qarori ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan e‘tiboran olti oy o‘tgandan so‘ng o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda ushbu qarorning maqsadlari, mazmuni va uni qo‘llash tartibi to‘g‘risida aholi, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar hamda tadbirkorlik sub’ektlarining keng xabardor qilinishini ta‘minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari J.A. Xodjaev hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori A.R. Jumanazarov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining
Bosh vaziri**

A. Aripov

Vazirlar Mahkamasining
20__ yil __ __dagi __-son qaroriga
1-ilova

**Shisha idishlarning xavfsizligi to'g'risidagi
TEXNIK REGLAMENT
1-bob. Umumiy qoidalar**

§ 1. Umumiy texnik reglamentning maqsadlari va ko'lam

1. Ushbu Umumiy texnik reglamentlar (keyingi o'rinlarda Texnik reglament deb yuritiladi) shisha idishlar xavfsizligiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi va quyidagi turdagi mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladi:

oziq-ovqat suyuqliklari uchun shisha butilkalar;
oziq-ovqat mahsulotlari uchun shisha bankalar;
maishiy kimyo tovarlari uchun bankalar va butilkalar.

2. Texnik reglament talablari dori vositalari, kimyo ishlab chiqarishi va parfyumeriya-kosmetika mahsulotlari uchun mo'ljallangan tibbiy shishadan yasalgan shisha idishlarga tatbiq etilmaydi.

§ 2. Atamalar va ta'riflar

3. Texnik reglamentda quyidagi atamalar va ta'riflar ishlatiladi:

ichki yuzaning suv chidamliligi — shisha idishning ichki yuzasining suv ta'siriga bardosh berishga qobiliyati;

kislotaga chidamlilik — ichki yuzaning kislota eritmalariga qarshi turish xossasi;

qizdirish — shisha namunasidagi qolgan kuchlanishlarni susaytirish uchun issiqlik ishlov berishning jarayoni;

qolgan kuchlanish — shisha namunasining plastik holatdan burg'uloq holatga o'tishi jarayonida paydo bo'ladigan va saqlanadigan kuchlanish;

ichki gidrostatik bosimga qarshilik — gidravlik sinov paytida namunaning buzilishi bo'ladigan ichki bosim;

o'qqa siqishga qarshilik — ma'lum sinov sharoitida mahsulotning chidashi mumkin bo'lgan o'qqa siqish kuchi;

termik chidamlilik — shishaning issiqlik ta'siriga bardosh berishi.

2-bob. Shisha idishlar uchun xavfsizlik talablari

§ 1. Umumiy xavfsizlik talablari

4. Shisha idish-tovarlarni ishlab chiqarish uchun texnik tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga javob beradigan xom ashyo va materiallar qo'llanilishi kerak.

5. Shisha idish-tovarlarni ishlab chiqarishda tayyorlash jarayonining Texnik reglamentga muvofiqligini ta'minlash zarur.

6. Shisha idish-tovarlarni ishlab chiqarishda uning xavfsizligiga bog'liq texnologik operatsiyalarni bajarilishini nazorat qilish imkoniyati ta'minlanishi kerak.

7. Shisha idish-tovarlarning devor va tubining minimal qalinligi bo'yicha talablar Texnik reglamentning 1-ilovasida keltirilgan.

8. Shisha idish-tovarlarda quyidagi nuqsonlar bo'lishi mumkin emas:

shisha yopishmalari, idishlar ichida shisha iplar;

o'tgan yoriqlar, singan qismlar;

o'tkir tikishlar;

atrofida yoriqlar va posechkalar bo'lgan begona qo'shimchalar;

ichki yuzada ochiq pufaklar.

§ 2. Kimyoviy va mexanik xavfsizlikka qo'yiladigan talablar

9. Shisha idishlarning xavfsizligi kimyoviy va mexanik xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan xarakterlanadi.

Kimyoviy xavfsizlik — sanitariya normalari, shishaning suvga chidamliligiga, ichki sirtining suvga chidamliligiga va shisha idishlarning kislotaga chidamliligiga qo'yiladigan talablar.

Mexanik xavfsizlik — termik chidamlilikka, ichki gidrostatik bosimga, siqish kuchiga va qoldiq kuchlanishlarga (toblash) qo'yiladigan talablar.

10. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan aloqada bo'ladigan shisha idishlarning sanitariya normalari shishaning rangiga qarab belgilanadi va Texnik reglamentning 2-ilovasiga muvofiq zararli moddalarning ajralib chiqishining ruxsat etilgan maksimal normalari shaklida qo'llaniladi.

11. Shisha idishlar uchun shishaning suvga chidamliligi 3/98 sinfidan past bo'lmasligi kerak.

12. Shishalarning ichki sirtining suvga chidamliligi, suvli ekstrakti titrlash uchun sarflangan xlorid kislotasi eritmasining hajmi bilan ifodalangan holda, quyidagidan ko'p bo'lmasligi kerak:

0,45 ml — hajmi 50 ml dan 250 ml gacha (qo'shib hisoblaganda) bo'lgan shishalar uchun;

0,35 ml — hajmi 250 ml dan 1000 ml gacha (qo'shib hisoblaganda) bo'lgan shishalar uchun;

0,30 ml — hajmi 1000 ml dan ortiq bo'lgan shishalar uchun.

13. Oziq-ovqat mahsulotlari uchun bankalar, shishalarning (sharbatlar, souslar, ketchup uchun) kislotaga chidamliligi — 10% sirka kislotasi eritmasi ta'sirida sirtning yemirilishi va xiralashishi belgilari yo'qligi.

14. Maishiy kimyo tovarlari uchun bankalar va shishalarning kislotaga chidamliligi 2-sinf dan past bo'lmashligi kerak.

15. Termik chidamlilik shisha idishning mo'ljallangan maqsadiga qarab, ish bosimida buzilmasdan harorat o'zgarishlariga bardosh berish bilan belgilanadi va Texnik reglamentning 3-ilovasiga muvofiq talablarga javob berishi kerak:

16. Dumaloq shakldagi shishalar va bankalarning ichki gidrostatik bosimga bardosh berish normalari Texnik reglamentning 4-ilovasida keltirilgan.

17. Shisha idish korpusning vertikal o'qi yo'nalishidagi siqish kuchiga buzilmasdan kamida quyidagicha bardosh berishi kerak:

5000 N (500 kgk) — iste'molchining talabiga ko'ra, pivo uchun mo'ljallangan shishalar uchun;

3000 N (300 kgk) — barcha turdagi bankalar uchun.

18. Buyumlarni toblashdan keyin qoldiq kuchlanishlarni nazorat qilishda polariskop-polarimetrdan nurlarning solishtirma yo'l farqi 115 nm/sm dan ko'p bo'lmashligi kerak.

Polariskop ko'rish maydonida quyidagi ranglarga yo'l qo'yilmaydi: to'q sariq, och sariq, sariq, oq, havorang-yashil, yashil, sariq-yashil.

3-bob. Qadoqlash, markalash va saqlashga qo'yiladigan talablar

§ 1. Qadoqlash

19. Shisha idishlar tashish va saqlash vaqtida ifloslanish va atmosfera yog'inlaridan himoyalashini ta'minlovchi polietilen termokichrayuvchi plyonkaga yoki boshqa turdagi o'rovlarga qadoqlanishi kerak.

§ 2. Markirovka

20. Shisha idishlarning markirovkasi yorliqqa, etiketkaga va/yoki bevosita mahsulot yuzasiga tushiriladi.

21. Shisha idishlarga tayyorlash jarayonida quyidagi ma'lumotlar tushiriladi:

korxonaning tovar belgisi izi yoki ishlab chiqaruvchini aniqlash imkonini beruvchi belgi;

nominal sig'imi (l yoki ml);

tayyorlangan sanasi (yil — oxirgi ikki raqam);

butilkalarning yelkasida uchta relyefli halqa (maishiy kimyo tovarlari uchun).

22. Shisha idishlarni markirovka qilish uchun qo'llaniladigan markirovka belgilarining o'lchami o'qishli bo'lishi kerak.

23. Hajmi 200 sm³ gacha bo'lgan idishlar uchun faqat tovar belgisining izi yoki ishlab chiqaruvchini va nominal hajmni aniqlash imkonini beruvchi belgi qo'yishga ruxsat beriladi.

24. Markirovkani buyumlar korpusining tubiga yoki pastki qismiga to'liq yoki qisman iz shaklida qo'yishga ruxsat beriladi. Markirovka korpusning pastki qismiga

qo'yilganda, markirovka belgilarining o'lchami korpusning tashqi diametri o'lchamlaridan chiqib ketmasligi kerak.

25. Markirovka ishlab chiqaruvchi tomonidan guruhli o'ramga va (yoki) transport o'ramiga yorliq yordamida qo'yiladi.

26. Shisha idish yorlig'ida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

ishlab chiqaruvchi mamlakat nomi;

ishlab chiqaruvchi korxona nomi;

ishlab chiqaruvchi korxonaning joylashgan manzili (pochta manzili);

shisha idishning nomi, shartli belgisi;

o'ramdagi idishlar soni;

ishlab chiqarilgan sana (oy, yil);

saqlash shartlari;

materialning harfiy qiymati (GL — shisha, shisha rangining raqamli kodi: 70 — rangsiz yoki yarim oq, 71 — yashil, 72 — jigarrang, 73 — havorang, 74 — ko'k, 75 — qizil, 76 — sariq);

mahsulotga oid texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatning nomi (belgisi);

sertifikatlash to'g'risidagi ma'lumot (majburiy sertifikatlanishi lozim bo'lgan tovarlarga nisbatan);

Texnik reglamentning 5-ilovasiga muvofiq shisha idishni oziq-ovqat mahsulotlari (1-rasm) yoki maishiy kimyo tovarlari (2-rasm) uchun ishlatish imkoniyati haqidagi piktogrammalar;

transport markirovkasi — «Sinuvchan. Ehtiyot bo'ling».

27. Markirovkada Texnik reglamentning 5-ilovasiga muvofiq ishlatilgan shisha idishni utilizatsiya qilish imkoniyati haqidagi piktogramma — belgi (Myobius halqasi) (3-rasm) qo'llanilishiga ruxsat beriladi.

28. Markirovka ishonchli va oson o'qiladigan bo'lishi kerak.

§ 3. Saqlash

29. Butilkalarga ishlab chiqarilgan sanadan boshlab saqlash uchun tavsiya etilgan muddatlar:

isitib turiladigan xonalarda — 1 yildan ko'p emas;

isitilmaydigan xonalarda — 5 oydan ko'p emas;

soyabon ostida yoki ochiq maydonchalarida — 3 oydan ko'p emas.

30. Bankalar yopiq xonalarda yoki soyabon ostida saqlanishi kerak. Bankalarni ochiq maydonchalarida 5 oydan ko'p bo'lmagan muddatda saqlashga ruxsat etiladi.

31. Shisha idishlarning saqlash muddati tugagandan so'ng, Texnik reglamentning 10, 11, 15 va 16-bandlarida keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha qayta nazoratni o'tkazish kerak.

Nazoratning ijobiy natijalari bo'lganda, idishlarning saqlash muddatini uzaytirish va/yoki ulardan foydalanish haqida qaror qabul qilinadi.

Bob 4. Identifikatsiya, namunalarni tanlab olish va sinovlar

§ 1. Identifikatsiya

32. Identifikatsiya deganda muvofiqlikni baholash maqsadida taqdim etilgan shisha idishning markirovkada ko'rsatilgan muhim belgilariga aynan mos kelishini aniqlash tushuniladi.

33. Shisha idishni identifikatsiya qilish organoleptik va instrumental usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Organoleptik identifikatsiya usuli mahsulotning markirovkasi va turi (maqsadiga), shuningdek, mahsulotning tashqi ko'rinishiga xos bo'lgan xarakterli belgilariga aynan mos kelishiga qarab amalga oshiriladi.

Instrumental identifikatsiya usuli o'lchamlar va fizik-mexanik ko'rsatkichlar bo'yicha o'lchov asboblari va o'lchov vositalari yordamida, ularning amaldagi qiyoslash belgilari va/yoki qiyoslash guvohnomasi bo'lgan holda amalga oshiriladi.

34. Shisha idishni nomlanishi, turi (maqsadiga), Texnik reglament talablariga muvofiqlikni tasdiqlashni baholashni o'z ichiga olgan belgilar bo'yicha identifikatsiya qilishni quyidagilar amalga oshiradi:

ishlab chiqaruvchi (sotuvchi), O'zbekiston Respublikasi hududida uni muomalaga kirituvchi;

sertifikatlashtirish organi — shisha idishning muvofiqligini tasdiqlashni baholash maqsadida;

davlat nazorati (kuzatuvi) organi, O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo'lgan shisha idishning Texnik reglament talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida.

§ 2. Namunalarni tanlab olish va sinovlar

35. Xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun namunalarni tanlab olish Texnik reglament talablariga xususiyatlarning muvofiqligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq o'tkaziladi.

36. Shisha idishlarning Texnik reglament talablariga muvofiqligini sinovdan o'tkazish texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilangan uslubiyatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

5-bob. O'tish davri

37. Texnik reglament kuchga kirgan paytdan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi va shisha idishlar xavfsizligiga talablarni belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ular Texnik reglamentga muvofiqlashtirilgunga qadar Texnik reglamentga zid bo'lmagan qismida qo'llaniladi.

38. Ushbu Texnik reglament kuchga kirgunga qadar shisha idishlarga berilgan Sanitariya-epidemiologiya xulosalari va muvofiqlik sertifikatlari ularning amal qilish muddati tugagunga qadar haqiqiy hisoblanadi.

Bob 6. Davlat nazoratini o'tkazish tartibi

39. Ushbu Texnik reglament talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va ularning hududiy organlari, shuningdek, boshqa maxsus vakolatli davlat organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

Bob 7. Texnik reglamentni buzganlik uchun javobgarlik

40. Ushbu Texnik reglamentni buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Shisha idishlar xavfsizligi
to'g'risidagi texnik
reglamentga
1-ILOVA

Shisha idishlar devorlari va tubi qalinligiga talablar

Naimenovanie izdeliya, naznachenie tarı	Tolıına, ne menee, mm	
	stenok	dna
Shishalar:		
a) shampın, shirin, gazlangan sharoblar uchun	2,5	4,0
b) alkogolsiz kuchli gazlangan ichimliklar uchun	1,8	3,0
v) vino uchun (ko'pikli marvarid, gazlangan marvarid), sidr, past gradusli gazlangan ichimliklar, alkogolsiz ichimliklar, kam va o'rtacha gazlangan mineral va ichimlik suvlari, maishiy kimyo tovarlari va b. uchun.	1,4	2,5
g) mahsulotlar uchun, CO2 ni o'z ichiga olmaganlar (pivo, vino, konyak, brendi, vino ichimliklar, kokteyller, kvas, siroplar, sharbatlar va boshqalar), va CO2 ni o'z ichiga olgan mahsulotlar (vodka, spirtlar, viski, jin, rom, likyor, nastoykalr, nalivkalr, punsh, balzam, sharbatlar, souslr, ketchuplar, mineral va ichimlik suv), sig'imi bilan:		
500 ml gacha;	1,2	2,5
500 ml dan 1000 ml gacha;	1,4	3,0
1000 ml dan yuqori.	2,0	4,0
Banki dlya pımevoy produksii i dlya tovarov bytovoy ximii, vmestimostyu:	1,4	2,0
	1,6	2,5

do 1000 ml vklyuchitelno;		
svyishe 1000 ml.		

Shisha idishlar xavfsizligi
to'g'risidagi texnik
reglamentga
2-ILOVA

**Chegaraviy ruxsat etilgan normalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan kontaktda
bo'ladigan shisha idishlardan zararli moddalarning ajralib chiqishi**

Shisha rangi	Moddalarning nomi	mg/l, ko'pi bilan
Rangsiz va yarim oq	Alyuminiy (Al)	0,500
	Мышьяк (As)	0,050
	Bor (V)	0,500
Yashil	Alyuminiy (Al)	0,500
	Xrom (Cr ³⁺)	Jami
	Xrom (Cr ⁶⁺)	(Cr ³⁺) + (Cr ⁶⁺)
		0,100
	Med (Su)	1,000
Jigarrang	Bor (V)	0,500
	Alyuminiy (Al)	0,500
	Marganes (Mn)	0,100
Moviy	Bor (V)	0,500
	Xrom (Cr ³⁺)	Jami
	Xrom (Cr ⁶⁺)	(Cr ³⁺) + (Cr ⁶⁺)
		0,100
Ko'k	Med (Su)	1,000
	Kobalt (Co)	0,100
Qizil	Med (Cu)	1,000
	Marganes (Mn)	0,100
Sariq	Xrom (Cr ³⁺)	Jami
	Xrom (Cr ⁶⁺)	(Cr ³⁺) + (Cr ⁶⁺)
		0,100
	Kadmiy (Cd)	0,001
	Bariy (Ba)	0,100

Shisha idishlar xavfsizligi
to'g'risidagi texnik
reglamentga
3-ILOVA

Shisha idishlarning issiqlik qarshiligiga talablar

Mahsulot nomi	Harorat farqi, kam emas	Shishadagi karbonat angidrid (CO2) bosimi, kPa, (20 ± 1) °C da
Suyuqlik uchun idishlar		
Shampan	35 °S	350 kam emas
Tozalanuvchi ichimlik, gazlangan ichimlik		300 kam emas
Spirtsiz kuchli gazlangan ichimliklar	40 °S	230 dan
Pivo		230 dan
Ko'pikli marvarid sharobi, gazlangan marvarid sharobi, sidr	40 °S	100 dan 250 gacha
Gazlangan past alkogolli ichimliklar		150 dan
Alkogolsiz ichimliklar, mineral va ichimlik suvlari: o'rtacha gazlangan; yengil gazlangan		150 dan 230 gacha, shu jumladan. 65 dan 150 gacha qo'shib hisoblaganda
CO2 bo'lmagan mahsulotlar: vinochilik (vinolar, konyak, brendi, sharob ichimliklar, kokteyllar va boshqalar); Alkogolsiz va alkogolsiz ishlab chiqarish (ichimliklar, siroplar va boshqalar).		35 °S
Aroq va spirtli ichimliklar (spirtli ichimliklar, viski, jin, rom, likyorlar, damlamalar, kokteyllar, sharbatlar, souslar, ketchuplar va boshqalar), mineral va ichimlik suvi	-	
Uy kimyoviy moddalari (sirka, aseton, bo'yoq tinerlari, turpentin, texnik suyuqliklar va boshqalar)	-	
Banklar		
Oziq-ovqat mahsulotlari uchun (konservalar)	40 °S	-
Uy kimyoviy moddalari uchun	35 °S	-

Shisha idishlar xavfsizligi
to'g'risidagi texnik
reglamentga
4-ILOVA

**Ichki gidrostatik bosimga chidamliligi aylana shaklidagi shishalar va bankalar
me'yorlar**

Mahsulot nomi	Tutib turish vaqti, sekund	Gidrostatik bosim chidamliligi normasi, MPa
Shishalar		
Shampan, gazlangan va gazlangan vinolar	60 ± 2	1,67
Kuchli gazlangan gazlangan ichimliklar	60 ± 2	1,57
Pivo, gazlangan vino va vino ichimliklar, o'rta va past gazlangan alkogolsiz ichimliklar, 250 dan 1000 ml gacha bo'lgan shisha idishlardagi alkogolsiz ichimliklar	60 ± 2	0,98
Pivo, gazlangan vinolar va vino ichimliklar, o'rta va past gazlangan alkogolsiz ichimliklar, 1000 ml dan ortiq shisha idishlardagi alkogolsiz ichimliklar	60 ± 2	0,67
Tarkibida CO ₂ bo'lmagan boshqa oziq-ovqat suyuqliklari (sharob, konyak, brendi, aroq, likyor, kokteyllar, ichimliklar, siroplar, kvas va boshqalar), sig'imi 250 dan 1000 ml gacha.	60 ± 2	0,49
Tarkibida CO ₂ bo'lmagan boshqa oziq-ovqat suyuqliklari (vino, konyak, brendi, aroq, likyor, kokteyllar, ichimliklar, siroplar, kvas va boshqalar) va sig'imi 1000 ml dan ortiq bo'lgan maishiy kimyo uchun	60 ± 2	0,39
Bankalar		
Hajmi 1000 ml gacha	5	0,3
Hajmi 1000 ml dan ortiq	5	0,25

Shisha idishlar xavfsizligi
to'g'risidagi texnik
reglamentga
4-ILOVA

**Oziq-ovqat mahsulotlari yoki maishiy kimyo mollari uchun shisha idishlardan
foydalanish imkoniyati haqida piktogrammani joylashtirish talablari**




Рисунок 1 — для пищевой продукции




Рисунок 2 — для товаров бытовой химии




Рисунок 3 — возможность утилизации использованной упаковки (петля Мебиуса).

